



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонвий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258





MINTAQALARDA INSTITUTSIONAL-IQTISODIY HAMKORLIKNING SHAKLLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Uralov Elshod Sirojiddin o'g'li

mustaqil tadqiqotchi

Qarshi davlat universiteti

E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning nazariy-metodologik asoslari, uning tashkiliy shakllari hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqotda institutsional iqtisodiyot nazariyasi, mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalari va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida davlat organlari, mahalliy boshqaruv institutlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanish xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, institutsional-iqtisodiy hamkorlikning hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, investitsion faollikni rag'batlantirish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga ta'siri baholangan. Tadqiqot davomida tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanilib, mintaqalarda hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: institutsional-iqtisodiy hamkorlik, mintaqaviy rivojlanish, hududiy boshqaruv, davlat–biznes–ilm-fan hamkorligi, innovatsion rivojlanish, investitsion faollik, hududiy raqobatbardoshlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, raqamli infratuzilma, institutsional muhit.

ФОРМЫ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РЕГИОНАХ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ

Уралов Эльшод Сироджиддин угли

независимый исследователь

Каришский государственный университет

E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы институционально-экономического сотрудничества в регионах, его организационные формы и роль в устойчивом социально-экономическом развитии регионов. Исследование систематически анализирует особенности развития сотрудничества между государственными органами, органами местного самоуправления, хозяйствующими субъектами, научно-образовательными учреждениями и институтами гражданского общества на основе теории институциональной экономики, концепций регионального развития и современных подходов к управлению. Также оценивается влияние институционально-экономического сотрудничества на повышение региональной конкурентоспособности, стимулирование инвестиционной активности, ускорение инновационных процессов и эффективное использование имеющихся ресурсов. В исследовании используются методы систематического, сравнительного и институционального анализа для определения приоритетных направлений развития сотрудничества в регионах.

Ключевые слова: институционально-экономическое сотрудничество, региональное развитие, территориальное управление, государственно-хозяйственно-научное сотрудничество, инновационное развитие, инвестиционная активность, региональная конкурентоспособность, устойчивое экономическое развитие, цифровая





инфраструктура, институциональная среда.

FORMS OF INSTITUTIONAL-ECONOMIC COOPERATION IN REGIONS AND DEVELOPMENT FEATURES

Uralov Elshod Sirojiddin ogli

*Independent researcher
Karshi State University*

E-mail: elshoduralov000@gmail.com

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of institutional and economic cooperation in the regions, its organizational forms and its role in the sustainable socio-economic development of regions. The study systematically analyzes the development features of cooperation between state bodies, local government institutions, business entities, scientific and educational institutions and civil society institutions based on the theory of institutional economics, concepts of regional development and modern management approaches. It also assesses the impact of institutional and economic cooperation on increasing regional competitiveness, stimulating investment activity, accelerating innovation processes and the effective use of existing resources. The study uses systematic, comparative and institutional analysis methods to identify priority areas for the development of cooperation in the regions.*

Keywords: *institutional and economic cooperation, regional development, territorial governance, state-business-science cooperation, innovative development, investment activity, regional competitiveness, sustainable economic development, digital infrastructure, institutional environment.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida globallashuv, raqamli transformatsiya va mintaqalararo integratsiya jarayonlarining jadallashuvi hududlarning iqtisodiy rivojlanish omillarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda mintaqalarning barqaror rivojlanishi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan bir qatorda davlat boshqaruvi organlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi institutsional-iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi bilan ham belgilanadi [1].

Globallashuv jarayonlari ayrim davlatlarda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni saqlash zarurati bilan bog'liq qarama-qarshi yondashuvlarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy integratsiya va institutsional hamkorlikning rivojlanishi hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatini mustahkamlash hamda investitsion jozibadorligini yuksaltirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli mintaqalarda davlat, xususiy sektor, ilm-fan va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. [2] O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini shakllantirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda investitsion va innovatsion faollikni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish hamda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish institutsional-iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Hududlarda institutsional-iqtisodiy hamkorlik iqtisodiy ustunligi, avvalo, innovatsiyalarni yaratish va joriy etish salohiyati, inson kapitalining sifati, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga transfer qilish darajasi hamda institutsional muhitning samaradorligi bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat–biznes–ilm-fan hamkorligi, hududiy klasterlar,





innovatsion infratuzilmalar va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqalarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda institutsional iqtisodiyotning nazariy asoslari va iqtisodiy hamkorlikning ayrim jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy shakllari, ularning hududiy rivojlanishga ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, institutsional hamkorlikning mintaqalarning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va innovatsion rivojlanishiga ta'sirini tizimli baholash bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur maqolaning maqsadi mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning nazariy asoslari va zamonaviy shakllarini tizimli tahlil qilish, ularning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash hamda hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlik masalalari so'nggi yillarda hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida keng tadqiq etilmoqda. O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Xususan, hududiy boshqaruv samaradorligi va institutsional muhit sifati mintaqalarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida qayd etilgan. MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa hududlararo va munitsipal hamkorlik, davlat–biznes sherikligi, innovatsion rivojlanish hamda hududiy raqobatbardoshlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar A.I. Idziyev, M.L. Nechaeva, I.Yu. Jdankina va boshqalar hududlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, resurslarni birlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishning institutsional asoslarini tadqiq qilganlar. [3] Maqolada mintaqaviy rivojlanishda samarali institutlar, manfaatdor subyektlar o'rtasidagi hamkorlik va boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning davlat, biznes, ilm-fan va fuqarolik jamiyati institutlari kesimidagi kompleks modeli, uning mintaqalar iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini institutsional iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish va hududiy boshqaruv konsepsiyalari tashkil etdi.

Tahlil va natijalar

Globalashuv va hududiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi nafaqat mavjud resurslardan foydalanish darajasi, balki hududiy institutlar o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarining shakllanganligi bilan ham belgilanadi. Tahlil jarayonida davlat, biznes, ilmiy-ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash usullari orqali mintaqalarda institutsional hamkorlikning iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillari aniqlandi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda mantiqiy tahlil, tizimlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilib, mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Zamonaviy sharoitda davlat boshqaruvi organlari, biznes subyektlari, ilmiy-ta'lim






muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar mintaqaviy iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda moddiy resurslardan tashqari inson kapitali, axborot almashinuvi, ilmiy salohiyat va tashkiliy boshqaruv imkoniyatlari hududiy rivojlanishning muhim omillariga aylanmoqda. Mintaqaviy rivojlanish jarayonida institutsional-iqtisodiy hamkorlikni uch bosqichli tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin (1-rasm).

1-rasm.

Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning tarkibiy tuzilmasi*



*Muallif ishlanmasi

1-rasmdan ko'rinadiki, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi alohida subyektlarning faoliyatidan ko'ra, ular o'rtasidagi integratsion aloqalar sifatiga bog'liq. Davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlasa, ilmiy muassasalar innovatsion yechimlarni shakllantiradi, jamiyat institutlari esa ushbu jarayonlarning ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, institutsional hamkorlikning rivojlangan shakllari mavjud bo'lgan hududlarda investitsion faollik, innovatsion loyihalar soni va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor faqat iqtisodiy resurslarni jalb qilishga emas, balki ularni samarali boshqarish imkonini beruvchi institutlarni shakllantirishga qaratilishi lozim.

$$ICHS = f(D + B + I + R)$$

Bu yerda:

D – davlat institutlari samaradorligi;

B – biznes hamkorligi darajasi;

I – innovatsion va ilmiy salohiyat;

R – raqamli va axborot infratuzilmasi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi nafaqat ishlab chiqarish hajmi bilan, balki turli institutlarning o'zaro bog'langan faoliyati bilan belgilanadi. Shu sababli hududiy siyosatda institutsional hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish hamda innovatsion faoliyat uchun qulay muhit yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Muallif fikricha, O'zbekiston mintaqalarida institutsional-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy sharti — bu hududiy boshqaruv





tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash va biznes subyektlari uchun barqaror institutsional muhit yaratishdan iborat. Mazkur yondashuv hududlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi, avvalo, inson kapitali, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonch, hamkorlik madaniyati va boshqaruv salohiyatiga bog‘liq. Davlat, biznes, ilmiy-ta’lim muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hududlarning barqaror rivojlanishi, innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mintaqalarda inson omiliga tayangan institutsional muhitni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, hamkorlikning raqamli mexanizmlarini rivojlantirish hamda davlat–biznes–ilm-fan integratsiyasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa hududlarning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son ***O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida***gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son ***2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida***gi Farmoni.
3. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Williamson O.E. *The Economic Institutions of Capitalism*. – New York: The Free Press, 1985.
5. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: The Free Press, 1990.
6. Acemoglu D., Robinson J.A. *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. – New York: Crown Business, 2012.
7. Rodrik D. *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. – Princeton: Princeton University Press, 2007.
8. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. – Cambridge University Press, 1990.
9. OECD. *Regions and Cities at a Glance 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024.
10. World Bank. *World Development Report 2024: The Middle-Income Trap*. – Washington, DC: World Bank, 2024.
11. United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2023/2024*. – New York: UNDP, 2024.
12. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2024*. – Geneva: WEF, 2024.
13. United Nations. *World Social Report 2024*. – New York: United Nations, 2024.
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – Toshkent, 2025.
15. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha tahliliy materiallar. – Toshkent, 2025.
16. Auzan A.A. *Institutsional iqtisodiyot*. – Moskva: INFRA-M, 2021.
17. Tambovtsev V.L. *Institutsional iqtisodiyot nazariyasi*. – Moskva: INFRA-M, 2022.

